(16). Сычев А.А. Смех как социокультурный феномен. Автореф.докт философ. наук, Саранск, 2004.
(17). Троицкая А.Л. Народный театр в Узбекистане. Восточный сборник. Л., 1990, вып. 4, с. 144–151.
(18). Хатипов Ф. Эпик жанрлар. Казан, Татар. кит. нәшр., 1973, 49-бет.
(19). Эструп И. Исследование о «1001 ночи», ее составе, возникновении и развитии, пер. с дат., – Москва, 1904, с. 26.
(20). Ястремский С.В. Образцы народной литературы якутов. Якутской АССР, т. 7, Л., 1929, с. 34.
(21). Яхин А.Г., Бакиров М.Х. Фольклор жанрларын система итеп тикшерү тәжрибәсе (Мәзәкләр, бәетләр), Казан, 1979.
(22). Яхин А.Г. Система татарского фольклора. Казань, 1984, 120 с.

Muxammedova Nilufar (PhD, O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti dotsenti)

ZAMONAVIY AQSH ADABIYOTIDA MO‘JIZAVIY REALIZM: INDIVIDUAL YONDASHUV

Annotatsiya. *Ko‘p millatli Amerika adabiyotida mo‘jizaviy realizm turli yondashuvlar asosida rivojlanmoqda. Bunday yondashuvlarda etnik guruhlarning tarixi va madaniyati ifodalanmoqda. Shu bilan birga, Amerika yozuvchilari mo‘jizaviy realizmga individual tarzda yondashgan holda uning o‘zgacha ifodalarini va shakllarini yaratmoqdalar. Mazkur maqola zamonaviy AQSH adabiyotida shakllangan mo‘jizaviy realizm elementlarini o‘ziga xos individual yondashuvda asarlarida aks ettira olgan adib Jonatan Kerol ijodi haqida so‘z yuritadi.*

Kalit so‘zlar: *realizm, mo‘jiza, shakl, roman, hayot, obraz, sujet.*

Мухаммедова Нилуфар (PhD, доцент, Узбекский государственный университет мировых языков)

МАГИЧЕСКИЙ РЕАЛИЗМ В СОВРЕМЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ США: ИНДИВИДУАЛЬНЫЙ ПОДХОД

Аннотация. *В многокультурной американской литературе магический реализм развивается на основе различных подходов. В этих подходах находят выражение история и культура этнических групп. Вместе с тем американские писатели, индивидуально подходя к магическому реализму, создают его своеобразные выражения и формы. В данной статье рассматривается творчество писателя Джонатана Кэрролла, который сумел отразить в своих произведениях элементы магического реализма своим особенным индивидуальным подходом.*

Ключевые слова*: реализм, магический, форма, роман, образ, сюжет*

Mukhammedova Nilufar (PhD, Associate professor Uzbekistan State World Languages University)

MAGICAL REALISM IN US CONTEMPORARY LITERATURE: INDIVIDUAL APPROACH

Annotation. *In multicultural American literature, magical realism is demonstrating various individual approaches. Within these approaches, the history and culture of different ethnic groups are being expressed. At the same time, American writers, by approaching magical realism in an individual way, are creating its unique expressions and forms. This article analyzes selected novels of Jonathan Carroll, who has been able to show elements of magical realism using a distinctive individual approach.*

Key words*: realism, magical, form, novel, life, plot.*

Kirish. Zamonaviy AQSH adabiyoti turli millatga mansub yozuvchilarning asarlari bilan boyib bormoqda. Bu esa adabiyotda har bir millatning o‘ziga xos bo‘lgan afsonalari, rivoyatlari va ertaklarida aks etgan millylikni aks ettirmoqda. Jahon adabiyotida XX asrning ikkinchi yarmida shakllangan mo‘jizaviy realizmga xos bo‘lgan badiiy asarlarda yozuvchilarning millat tarixiga, o‘tmishiga murojaat qilish va ularni qayta aks ettirish uchramoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bunday yondashuvni biz afro-amerika, Amerika hindu adiblari asarlarida keng uchramoqda. Shu bilan birga, mo‘jizaviy realizmning yangi xususiytalari o‘zgacha tarzda ham aks etmoqda. Har bir yozuvchining estetik qarashlari va individual tajribasiga asoslangan holda asarga noyob shakl va mazmun baxsh etmoqda. Afroamerika va amerika hindu ijodkorlaridan farqli ravishda, Jonatan Kerol (1949-yil tug‘ilgan), Lusius Shepard (1943–2014) va Sara Eddison Allen ijodida mo‘jizaviy realizmning turfa qirralari ko‘zga tashlanadi. Jonatan Kerol asarlarida real hayot bilan fantastik haqiqat o‘rtasidagi nozik chegara psixologik va his-tuyg‘u orqali beriladi. Lusius Shepard esa mo‘jizaviylikni ekzotik joylar, mahalliy afsonalar va kosmik haqiqatlar bilan uyg‘unlashtirib, ko‘proq falsafiy va metafizik ohangga urg‘u beradi. Eddison Allen esa kundalik hayotni o‘ziga xos lirik sehr bilan boyitadi, unda mo‘jiza ayol tajribasi, oilaviy xotiralar va ijtimoiy muhit bilan bog‘lanadi. Ushbu yozuvchilar asarlarida mo‘jizaviy realizmning har xil individual yondashuvlari ko‘zga tashlanadi, bu esa badiiy uslubning moslashuvchanligini va ko‘p qirraliligini namoyon etadi.

Jonatan Kerol (Jonathan Carroll, 1949-yilda tavallud topgan) – zamonaviy Amerika adabiyotining o‘zining individual badiiy uslubiga ega yozuvchilardan biri bo‘lib, uning asarlarida biz mo‘jizaning oddiy hayotga mohirona uyg‘unlashganiga guvoh bo‘lamiz. Uning ijodida mo‘jizaviy realizmning asosiy xususiyatlari namoyon etadi, bu esa AQSH adabiyotshunosi Uendi Feris taklif etgan mo‘jizaviy realizm nazariyasini aks ettiradi. J.Kerolning badiiy uslubi markazida mo‘jiza elementlari, ya’ni gapiruvchi hayvonlar, kelajakdan darak beruvchi tushlar, kundalik hayot yoki romantik kontekstda qo‘llanilishi turadi. Bu motivlar shunchaki bezak emas, balki qayg‘u, sevgi, yo‘qotish va o‘zgarish kabi chuqur ruhiy holatlarni o‘rganishga xizmat qiluvchi vositalardir.

Tadqiqot metodologiyasi. Jonatan Kerolning romanlarida voqealar oddiy shahar muhitida, kitobxonga tanish bo‘lgan joylarda, ya’ni zamonaviy qulay uylarda, insoniy munosabatlarda, shahar kafelarida boshlanadi. Biroq voqea rivojlanar ekan, qahramonlar hayotida o‘zgarishlar sodir bo‘la boshlaydi va ular orqali g‘ayrioddiy, mo‘jizaviy elementlar ko‘z ilg‘amas tarzda kirib keladi. Qahramonlarning dunyosi sezilmas darajada, ammo qaytarib bo‘lmaydigan tarzda mo‘jizaviy unsurlar aralashuvi orqali o‘zgarib boradi. Bu jarayon emotsional va psixologik o‘zgarishni aks ettiradi, qahramonlar ko‘pincha roman boshida kundalik hayot yoki ma’lum ruhiy holatga bog‘langan bo‘lishadi, biroq voqealar ularni o‘z-o‘zini anglash yoki ma’naviy yuzlashuv sari undaydigan g‘ayrioddiy sayohatga olib kiradi. Jumladan, “Kulgu makoni” *(The Land of Laughs,* 1980) asarida yozuvchi Tomas Abbey ismli qahramonni tasvirlaydi. U taniqli bolalar yozuvchisining biografiyasini yozish maqsadida kichik shaharchaga yo‘l oladi. Biroq u bu yerda marhum yozuvchi yaratgan mo‘jizaviy olam bilan uyg‘unlashgan hayot mavjudligini kashf eta boshlaydi. Dastlabki voqealar realistik tusda bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan Tomas mantiqqa zid hodisalar va personajlar bilan to‘qnashadi. U gapiruvchi itlar, o‘zligini o‘zgartira olgan shaxslarga duch keladi va xayoliy olam bilan real hayot ajralmas darajada qorishib ketganligini his qiladi. Tomas uchun bu an’anaviy hayot emas, bu yerda mo‘jiza hayotning tabiiy qismidek tasvirlanadi, bu holat esa mo‘jizaviy realizm tamoyillariga mos keladi. Adibning o‘zgargan hayotni tasvirlashi Tomasning ichki ruhiy holatini va ijodiy o‘zligini anglash jarayoni uchun metaforaga aylanadi. Tomas bunday mo‘jizaviy olam orqali shaxsiy yo‘qotish va o‘zini anglash yo‘lini bosib o‘tadi. Jonatan Kerolning “It muzeyi tashqarisida” (Outside the Dog Museum, 1991) romani metafizik va psixologik jihatdan chuqur roman hisoblanadi. Asar mashhur me’mor Garri Redkliffning hayoti haqida hikoya qiladi. U hayoti muammolarga to‘la bo‘lishiga qaramay, Yaqin Sharqdagi hukmdor uchun saroy loyihasini yaratish bo‘yicha nufuzli tanlovda g‘olib chiqadi. Ammo me’morning Yaqin Sharga safari ma’naviy, ruhiy va g‘ayritabiiy sayohatga aylanadi.

Roman voqealari davomida Garri tushunib bo‘lmaydigan hodisalarga duch keladi. Unga gapiradigan itlar donishmandlik qiladilar va maslahat beradilar, binolar unga xotiralardan so‘zlaydi, vaqt esa odatdagi tartibdan chiqib ketadi, o‘tmish va hozirgi vaqt o‘zaro aralashgan holatda tasvirlanadi. Bu hodisalar uning o‘zini anglashiga, ichki, ruhiy o‘zgarishlariga olib keladi.

Tahlil va natijalar. Romanda yozuvchi realizm va mo‘jizaviy elementlarni mohirona uyg‘unlashtiradi, kitobxonni real hayot va xayol orasidagi nozik chegaraga yetaklaydi. Asarda ijod, xalos bo‘lish, ma’naviy o‘sish kabi mavzular ko‘tarilgan. Mazkur asar hayot, san’at va insonning o‘zini anglash yo‘lini tasvirlaydi va taassurotga boy sayohatlar tashqarida emas, ichkarida, ya’ni qalbda bo‘lishini ta’kidlaydi.

Roman sarlavhasi ramziy va metaforik ma’noga ega. Asardagi asosiy mavzular inson idrokini, haqiqatni anglashini va o‘zgarishini ifodalaydi. Roman sarlavhasida adib so‘z o‘yinidan samarali foydalanadi. Bir o‘qishda “it muzeyi” iborasi g‘alatidek tuyuladi. Biroq iboraning mazmunini tahlil qiladigan bo‘lsak, u chekkadagi bema’ni joyni anglatadi. Sarlavhadagi “tashqarida” bo‘lish esa an’anaviy qarashlardan chetga chiqish ma’nosini, ya’ni o‘zgacha ruhiy olamga kirishni ifodalaydi. Roman qahramoni Garri Redklif o‘z ruhiy, ma’naviy olamiga kiradi va kimligini anglab yetadi. Sarlavhadagi “musey” so‘zi esa o‘tmishni, xotiralarni anglatadi. “Muzeydan tashqarida” bo‘lish esa o‘z-o‘zini yangidan kashfa etish, o‘sish va yangilanishga qadam qo‘yish ma’nosini ifodalaydi. Romanda arxitektor Garri Redklifning Uzoq Sharqga safari bilan birga ichki uyg‘onishi ham tasvirlanadi. “It muzeyidan tashqarida” esa hayotdagi yuzaki haqiqatlarga chalg‘imasdan, odatiylikdan chiqib, inson ruhiy olamida hikmatni, ma’noni izlash lozimligini anglatadi. Romanda haqiqat gohida g‘ayritabiiy va aql bovar qilmas voqealar orqali ochiladi. Shu bois, sarlavha roman ruhiga mos, u oddiy fikrlashdan voz kechib, mo‘jizaviylik va metafizik ma’nolar sari yo‘l ochadi.

Amerikalik tadqiqotchi Uendi Ferisning taklif qilgan mo‘jizaviy realizm xususiyatlari Jonatan Kerolning asarlari, aynan “It museyi tashqarisida” romanida o‘z ifodasini topgan. Uendi Feris mo‘jizaviy realizm beshta asosiy elementni o‘z ichiga oladi deydi va quyidagilarni sanab o‘tadi [1;136–1148-b.]:

1) real hayotda tushuntirib bo‘lmaydigan mo‘jiza (irreducible magic);
2) ruhiy va moddiy olamning uyg‘unligi (merging of realms);

3) vaqt va makonning buzilishi (disruptions of time and space);
4) turli shakllar birlashuvi (hybridity);
5) qahramonlar xabardorligi (metafictional awareness).

Jonatan Kerrolning "It museyi tashqarisida" romani ana shu elementlarni lirik, g'ayrioddiy va chuqur psixologik voqealar orqali namoyon etadi. Quyida ushbu roman asosida mo'jizaviy realizmga oid beshta xususiaytni tahlilga tortamiz. Birinchi xususiyat bu romandagi gapira oladigan itlar. Ular Garri Redklif uchun yo'lboshch vazifasini o'taydi. Romanda Garri Redklif bilan do'stlashgan va so'zlashganda falsafiy iboralardan samarali foydalana oladigan it real voqealarning bir qismiga aylanadi. Bu hodisa na tush, na galusinatsiya sifatida izohlanadi. Uendi Feris bu kabi tushuntirib bo'lmaydigan hodisalarni "tushuntirib bo'lmaydigan, ammo badiiy adabiyotda qabul qilingan" deya izohlaydi. It Redklifning ichki dunyosiga yo'l ko'rsatib, ma'naviy o'zgarishlarga sabab bo'ladi. *"It menga dono ko'zlari bilan qaradi va dedi: 'Sen yetarlicha diqqat bilan tinglamayapsan, Garri. Yaxshiroq tingla – kerakli narsani eshitasan." – "The dog looked at me with old eyes and said, 'You're not listening hard enough, Harry. Listen better and you'll hear what you need"* [2;45–46-b.]. Asar parchasidan ko'rinib turibdiki, it qahramon hayolida gapirmayapti. U Garrining doimiy hamrohi, it hayvon va inson o'rtasidagi chegarani buzgan holda, Garriga maslahat beradi. Gapiradigan it atrofdagilarni hayratga solmaydi, u jamiyatning a'zosi sifatida qaralgan. Bu it real hayotda atrofimizda mo'jizaning doimiy mavjudligini va uning sehr kuchini ifodalaydi. Romanda mo'jizaviy realismning keyingisi bu jonsiz narsalarning ma'lum bir his-tuyg'yni aks ettirishidir. Redklif yaratayotgan bino muhandislikka asoslanmaydi, bino arxitekturasi qahramonning ruhiy ilhomi natijasidir. Bino qurilish fizika qonunlariga asoslanmaydi, g'ishtlar, toshlar ancha og'irroq ko'rinadi, makon esa go'yoki tirik jonzotday harakatlanadi. Bino insom ichki olamining moddiy shakli bo'lib, u Redklifning ruhiyatini metaforik tarzda aks ettiradi. *"Qo'limdagi toshlardan ovoz eshitilardi. Devorga faqat qurilgan deb qarab bo'lmaydi, uning xotirasi bor, devorlar ham nimanidir eslab qoladi. Ular insonni yorug'likdan yoki sovuq-dan qanday asrasa, shunday his-tug'uni ko'rsatadi". –"The stones hummed under my hand. The wall wasn't just built – it remembered. It had emotion in the way it held light"* [1;25–26-b.]. Garri qurgan bino oddiy emas, u nafas oladi, his qiladi va his-tuyg'u orqali insonni ogohlantira oladi. Bunda Redklifning aqliy va jismoniy olami birlashuvi kuzatiladi. Bino arxitekturasi inson ma'naviyatining ifodasi vazifasini otaydi.

Romandagi eng hayratlanarli darajada go'zal va sirli joylardan biri bu bog'dir. Bog'da unutilgan xotiralar moddiy shaklda, ya'ni flora yoki narsalar ko'rinishida paydo bo'ladi. Redklif bog'da sayr qilar ekan, u o'z hayoti haqidagi xotiralarni – bolalikdagi qo'rquvlarini, quvonchlarini, hatto o'zining yangi, noma'lum bo'lgan shakllarini ko'radi. Bu shakllar orqali u atrofdagilarning o'zi haqidagi fikrlarini, munosabatlarini anglagandek bo'ladi. Bog'ning bunday namoyishiga Redklif hurmat bilan qaraydi, axir ularning har biri u uchun psixologik ahamiyatga ega. Asarda bog'allegorik vosita vazifasini o'tamaydi, u xotiralarni moddiy shaklda Redklifga namoyish etadi. Bunda o'tmish hozirgi zamon bilan moddiy tarzda birlashadi. Ruhiy va jismoniy makonning birlashuvi chegaralarni buzadi va Uendi Feris ta'kidlagan mo'jizaviy realizmning xususiyati hizoblangan vaqt va malon buzilishini ifodalaydi. Jumladan, vaqtning buzilishi quyidagi parchada shunday aks ettiriladi: *"U hali tug'ilmaganligini aytdi, lekin hamma narsani tepadan kuzatdi. U men qilmagan ishimni bilar edi, lekin qilishimni va men bunga e'tibor berishim kerakligini aytdi, chunki u endi kelmasligi mumkin ekanligini ta'kidladi". –"He said he wasn't born yet but had watched everything from the other side. He knew things I hadn't done but would, and said I should pay attention because he might not come again"* [2;55–56-b.]. Parchadagi bu bola Redklifning hayotini bashorat qiladi, uni ogohlantiradi va ishontira oladi ham. Yozuvchining bunday uslubi Uendi Feris ta'kidlagan xronologik chegaralarni buzadi va asar g'oyasini metaforik tarzda ifodalashga xizmat qiladi. Romanda mo'jizaviy realizmga xos bo'lgan keyin xususiyat ruhoy o'zgarishlarga sabab bo'lgan bo'rondir. Romandagi bo'ron nafaqat ob-havoni, balki odamlarning ruhiyatini ham o'zgartiradi. Ayrimlar noma'lum tilda so'zlasha boshlaydi, boshqalar esa tushunarsiz motamga botadi. Bu ijtimoiy ongda sodir bo'layotgan mo'jizaviy elementlar ifodasi bo'lib, shahar aholisining ma'naviy manzarasini butunlay o'zgartiradi. *"Bo'ron kelganda daraxtlarni emas, fikrlarni sindirdi. Odamlar o'zgardi, eski sirlar suvda ilonlar kabi sirtga chiqdi. Shahar hech qanday sababsiz yig'lab yubordi. Biz bir-birimizni so'zlarsiz tushundik"* [3;125–126-b.]. Bunday tabiiy hodisa ma'naviy va ruhiy jihatlar o'zaro uyg'unlashganini namoyon etadi. J.Kerol bo'ronni ko'rinmas o'zgarishlarni – travma, shaxs inqirozini dramatic tarzda tasvirlash uchun badiiy uslub sifatida ishlatadi. Qahramonlarning bo'ron oqibatlarini jiddiy qabul qilishlari mo'jizaviy realizm ahamiyatini yanada kuchaytiradi. Roman so'ngida Redklif kelajakda tug'iladigan arxitektor ruhining moddiy shakli bo'lgan bola bilan uchrashadi. Bola hali mavjud bo'lmagan arxitektura trendlari haqida gapiradi va hodisalarni oldindan aytadi. Bu hodisa vaqtning doiraviyligini ifodalaydi va Kerol ijodini Uendi Feris nazariyasiga kora asoslab beradi [4;112–113-b.]. Bola

badiiy tasavvurning ramzi sifatida ham namoyon bo‘ladi. U davrlarni bog‘laydigan ijodiy kuch. Uning mavjudligi yuqorida Uendi Feris ta’kidlagan mo‘jizaviy realizmning beshinchi xususiyatini aks ettiradi. Bola asar metafizik manzarasini tasvirlaydi, unda qahramonlarning o‘zaro ta’siri natijasida, Redklifning qobiliyati, ishonchi yanada kuchayadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qiladigan bo‘lsak, J.Kerol mazkur romanida mo‘jizaviy realizm elementlaridan samarali foydalanadi, uni badiiy uslubiga aylantiradi. Adib mo‘jizaviy realizmdan insonning murakkab holatlarini o‘rganish uchun qanday foydalanishini ko‘rsatadi. "Gapiradigan it" va "xotira bog‘i"-lar orqali J.Kerol haqiqatning yashirin qatlamlariga kirib boradi va ichki dunyoni tasvirlaydi. Asardagi mo‘-jizalar o‘quvchilarni hayratga solmaydi, aksincha, voqealar ularni real, abiiy ko‘rinadigan dunyoga olib kiradi. J.Kerolning mo‘jizaviy realizmi g‘ayrioddiy fikrlash har doim ham tashqarida emas, balki ko‘pincha ichkarida ekanligini tan olishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Faris W.B. Ordinary Enchantments. Magical Realism and the Remystification of Narrative. Nashville Vanderbilt. University Press. 2004, 480 p.

(2). Carroll J. The Land of Laughts. Orb Books. 1980, 272 p.

(3). Carroll J. Outside of Dog Museum. Ace Books. 1991, 256 p.

(4). Bowers M.A. Magical Realism. The New Critical Idiom. London, N.Y., 2004,150 p.

Xoliyarov Lutfulla Tashkuvatovich (O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti “Roman-german tillari tarjimashunosligi“ kafedrasi dotsenti, f.f.n.)

KRISTINE LAVANT IJODIDA EKZISTENSIALIZM, DINIY MOTIVLAR VA INSON RUHIYATI TALQINI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada XX asr Avstriya adabiyotining yorqin vakillaridan biri bo‘lgan Kristine Lavant hayoti hamda ijodiy merosi tahlil qilinadi. Shoiraning murakkab hayot yo‘li, jismoniy va ruhiy azoblari uning poetik tafakkuriga qanday ta’sir ko‘rsatgani yoritiladi. Tadqiqotda Lavant lirikasidagi diniy izlanishlar, ekzistensial iztiroblar, insonning ichki ruhiy kechinmalari, yolg‘izlik, qashshoqlik va jamiyatdan chetlatilish kabi mavzular tahlil etiladi. Shuningdek, uning she’riy tilidagi ramziy obrazlar, metaforik birliklar va modernistik poetika xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Lavant ijodi inson va ilohiyot o‘rtasidagi murakkab munosabatni ifodalovchi badiiy fenomen sifatida baholanadi. Ushbu maqola shoira poetikasining o‘ziga xos jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Kristine Lavant, Avstriya adabiyoti, modernizm, ekzistensializm, diniy lirika, poetik obraz, inson ruhiyati, metafora, modern she’riyat, mistitsizm, poetika, ichki kechinma.*

ЭКЗИСТЕНЦИАЛИЗМ, РЕЛИГИОЗНЫЕ МОТИВЫ И ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ПСИХИКИ В ТВОРЧЕСТВЕ КРИСТИНЫ ЛАВАНТ

Аннотация. *В данной статье анализируются жизнь и творческое наследие Кристины Лавант – одной из ярких представительниц австрийской литературы XX века. Освещается влияние сложного жизненного пути поэтессы, а также её физических и духовных страданий на её поэтическое мышление. В исследовании рассматриваются такие темы, как религиозные поиски, экзистенциальные страдания, внутренние душевные переживания, одиночество, бедность и социальная изоляция в лирике Лавант. Также анализируются символические образы, метафорические единицы и особенности модернистской поэтики её поэтического языка. Творчество Лавант оценивается как художественный феномен, выражающий сложные отношения между человеком и божественным началом. Данная статья направлена на раскрытие своеобразия поэтики поэтессы.*

Ключевые слова: *Кристина Лавант, австрийская литература, модернизм, экзистенциализм, религиозная лирика, поэтический образ, человеческая психика, метафора, современная поэзия, мистицизм, поэтика, внутренние переживания.*

EXISTENTIALISM, RELIGIOUS MOTIFS, AND THE INTERPRETATION OF THE HUMAN PSYCHE IN THE WORKS OF KRISTINE LAVANT

Annotation. *This article analyzes the life and creative legacy of Kristine Lavant, one of the prominent representatives of 20th-century Austrian literature. It highlights how the poet’s complex life path, as well as her physical and psychological suffering, influenced her poetic thinking. The study examines themes such as religious exploration, existential anguish, inner emotional experiences, loneliness, poverty, and social exclusion in Lavant’s lyric poetry. It also considers the symbolic imagery, metaphorical units, and features of modernist poetics in her poetic language. Lavant’s creativity is evaluated as an artistic*